

TARBIYALI BOLA- KELAJAK POYDEVORI

Muminova Gulasal Baxodirovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Toshpo`latova Nozmexr, Maxmudova Xushnuza

Qo`qon DPI talabalari

Annotatsiya: Maqolada bola tarbiyasi borasidagi fikrlar, uning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishida davlat va jamiyat, oila, ota-onalarning o`rni haqida falsafiy va nazariy fikrlar berilib, uning tarbiyali bo`lib tarbiyalanishidagi ayrim muammolar xususida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: bola, tarbiya, barkamol, jamiyat, ota-ona, ma`suliyat, oila, farzand tarbiyasi, kelajak, maqsad, rivojlanish.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta`lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashtirish jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo`g`in hisoblangan maktabgacha ta`lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o`rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Tarbiya har bir davrda muhim va dolzarb masala bo`lib, millat, yurt, mamlakat kelajagini belgilab bergan. Chunki ta`lim - tarbiyani yuksak darajaga ko`tarmasdan turib, ko`zlagan oliy maqsadlarga erishib bo`lmaydi. "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida rivojlanayotgan jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalash, ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday tarbiya jarayoni murakkab hamda davomiylik xususiyatiga ega.

Ta`lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e`tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag`a bo`lmaydi. So`nggi yillarda maktabgacha ta`lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Maktabgacha ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta`lim bilan bosqichma-bosqich to`liq qamrab olishni ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi Farmoni bilan Maktabgacha ta`lim vazirligi tashkil etildi. Bugungi kunda O`zbekistonda 17 mingdan ortiq maktabgacha ta`lim tashkiloti faoliyat ko`rsatmoqda. 2020 yilda Maktabgacha ta`lim vazirligi tizimga bolalar qamrovini 60 foizga yetkazdi. 2021 yilda bu ko`rsatkich 65 foiz bo`lishi kutilmoqda, shuningdek, 85,2 foiz 6 yoshli bolalarni majburiy 1 yillik ta`lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan.

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona uning odobi, kelajagi haqida qayg`ura boshlaydi. Insoniy fazilatlarini singdirishga harakat qiladi. Imom ibn Kudoma o`zining "Minohojul kosidin" nomli kitobida bir necha odoblarni zikr qiladi: "Bola voyaga yetib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo`lsa, uni kuzatish va ahvolini o`rganish lozim bo`ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo`lib, u har qanday naqshni qabul qilishga tayyor. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg`ayadi, agar yomonlikka odatlantirilsa, yomonlik bilan ulg`ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo`yniga tushadi".

Darhaqiqat, farzandining tarbiyasida oilaning, ota-onaning o`rni benihoyat kattadir. Aynan ota-onaning e`tibori oilada hulq-atvor ma`daniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Farzand misoli bir yangi niholdir, uning kelajakda ko`rkam daraxt bo`lishi va hosil berishi uchun parvarish va e`tibor kerak. E`tiborsiz nihol oxir borib faqatgina o`tin bo`lishga yaraydi xolos. Savol tug`ilishi mumkin: hozirgi davr yoshlarining axloqi, xulq-atvori qanday? Zamonaviy oilalarimizda bolalarga qanday

tarbiya berilmoqda? Davlatimiz bergan e'tibor va imkoniyatlardan unumli foydalana olyaptilarmi? Yoki "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" deganlariday turli yomonlik ko'chalariga kirib qolyaptimi? Xo'sh, shunday bo'lganida bunga sabab nima?

Demak, bunday bo'lish sababini biz kattalar o'zimizdan, oilada ota-ona va ikkinchi ota-ona bo'lmish ustozlarimizdan qidirishimiz kerak emasmi? To'g'ri, hozirgi kunda zamonamiz taraqqiy etgan, rivojlanish darajasi jihatdan o'zbek millati ham ko'plab chet davlatlaridan qolishmayapti. Shu taraqqiyot natijasida chetdan ongimizga salbiy ta'sir etuvchi turli ta'sirotlarni ham kirib kelayotganini sezmay qolmayapmizmi...

Lekin nima bo'lganda ham biz o'zbekimiz va shu o'zligimizni qandaydir hoyu havaslarga almashtirmasdan asl holicha saqlashimiz, bizdan keyingi avlodga bus-butunligicha yetkazishimiz lozim. Yoshlar ongi yangiliklarga juda qiziquvchan, ularni tez o'zlashtirib olish qobiliyatiga ega.

E'tibor bilan qaraylikchi, yoshlar qabul qilayotgan yangilik ularni ongini zaharlamayaptimikin?

- Bolalarimizning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatmayaptimi?
- Ularni yomon yo'llarga boshlamayaptimikin?
- Farzandlarmiz ko'chaga chiqqanlarida ular maktabga yetib borishmoqdami?
- Kunlik harajatlar uchun berayotgan pulimizni to'g'ri yo'lga sarf qilyaptilarmi?

Ota-onalar bularga e'tiborliroq bo'lishi lozim. Ko'chalarda ochilgan turli internet kafelar, kompyuterdagi turli o'yinlar va bolalarimizning qo'llariga o'zimiz tutqazib qo'ygan mobil telefon orqali olayotgan ma'lumotlar, o'xshatish bilan aytganda, ongni zaharlovchi viruslar ularga nojo'ya ta'sir qilmayaptimikin? Bularga, albatta, barchamiz e'tiborli bo'lishimiz zarur. Axir aytishadi-ku, "Bir farzandga yetti mahalla ham ota- ham ona" deb. Yuqoridagi kabi ibratli fikrlarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Prezidentimiz aytib o'tganlaridek: "Yoshlar bizning kelajagimiz". Kelajakning mustahkamligi bugunning sog'lom fikrlovchi sog'lom avlodni tarbiyalashimizga bog'liq.

Qaysi ota-ona o'z farzandiga mehr ko'zi bilan boqmaydi. Aynan shu otaonalar bir butun oila – davlatning bir bo'lagi. Donishmandlarning "Ildizga boq!" degan qadimiy gaplari bor. Aynan Prezidentimiz fikrlarida inson barkamolligining ildiziga ishora aniq ko'zga tashlanadi. Farzandlar ko'zimizning oq-u qorasi. Ularning kelajagi bizning baxtimizdir. Shunday ekan, ularni chiroyli xulq egalari, bugunning Temurlari, bugunning Navoiylari, bugunning Jaloliddinlari qilib tarbiyalash uchun kun davomida bajarayotgan ishlariga, yurish-turishlariga va ular bilan doimiy aloqada bo'luvchi o'rtoqlariga ham e'tibor qaratishimiz, ular ruhiyatidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishimiz zarur. Zero, keng ma'noda aytadigan bo'lsak, sog'lom bolalar kelajagimiz davomchilaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari Ro'yxatdan o'tish. 03.07.2018 yildagi 3032-son.
2. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI (TRIZ TEXNOLOGIYALARI)." " *ONLINE-CONFERENCES* " PLATFORM. 2023.
3. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.

4. Anvarovna, Sulstonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
5. Anvarovna, Sulstonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
6. Bakhodirovna, Halkuzieva Dilnoza. "Personality-Oriented Education in the Development of Creative Activities of Future Educators." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)* 1.8 (2023): 432-435.
7. Султонова, Нурхон Анваровна. "Теоретические основы подготовки детей в современных условиях к социальной жизни в семье." *Scientific progress* 1.6 (2021): 631-635.
8. Султонова, Нурхон. "ОРГАНИЗАЦИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРАХ." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
9. F.Qodirova Maktabgacha pedagogika-Toshkent 2019 yil

